



МУҒАЛЛИМ ҲӘМ УЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЙ

Илимий-методикалық журнал



№ 5 2024



гуманитарные науки
естественные науки
технические науки

МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЙ



Илимий-методикалық журнал

2024

5-сан

*Озбекстан Республикасы Министрлер Кабинети жасындағы
Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарапы менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз ҳәм хабар агентлиги тәрепинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы гүйалық берилген.*

Нөкис



МАЗМУНЫ

ТИЛ ХЭМ ЭДЕБИЯТ

Ibodullayeva S.M. "Kecha va Kunduz" romanida "Begonalik" tushunchasini ifodalovchi undalmalar	7
Haydarova G.M. O'zbek tilining izohli lug'atida yasama so'zlardan foydalanish holati	13
Axmadalisiyeva M. Sh. Ijodiy jarayonning mangullikka yo'g'rilishi	20
Sattorova Sh.R. Xorijiy tillarni badiiy adabiyot asosida o'qitishning ilmiy-nazariy tahlillari	25

ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

Davletmuratov Ж.К. Техникалық бағдардағы жоқарғы оқыў орынларында «Материалтасыу» пәнин оқытыўда педагогтың креативлигин арттырыўдың нәтийжелі жоллары	31
Ikromova M.X. Технология фанини ўқитишида рақамлаштирилган таълим ресурсларидан фойдаланишининг ўзига хос хусусиятлари	38
Aхмаджанов Д.Б. Бўлажак ўқитувчиларни тайёрлашда шарқ мутафаккирларининг маънавий-ахлоқий таълимотларидан ғозий омил сифатида фойдаланиши	44
Murtozayeva M.M. Voyaga yetmagan bolalarda salbiy hulqning namoyon bo‘lishi va ularni bartaraf etishning ijtimoiy-pedagogik tendentsiyalari	51
Mavlanov Sh.Yu. Ta’lim jarayonida pedagogik atamalar mazmunini modernizatsiyalash va ulardan foydalanish funktsiyalari	56
Qodirova M.A. Oliy ta’lim muassasalarining ingliz tili yo‘nalishi talabalarida refleksivlikni rivojlantiruvchi omillar	62
Begmatova S.N. Tayanch kompetensiyalarni aniqlash muammosi ta’lim mazmunini yangilashning markaziy masalalaridan biri sifatida	67
Choriyeva G.Sh. Biologik ekskursiyalar – o‘quv ishlarining tashkiliy shakli sifatida	70
Karimova N.A. Maktab biologiya ta’limida o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishda pegagogik-psixologik xususiyatlari	76
Xalmuratov I.T. Qadriyatli yondashuv asosida talabalarning innovatsion faoliyatini rivojlanrinish	80
Ergashev J.M. Didaktik o‘yinlarning ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyati	85
Orimbetov N.T. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta’mindaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar	92
Ochilov X.A. Oliy ta’lim muassasalarida rahbar kadrlarni boshqaruv kompetentligini takomillashtirishning amaliyotdagi ahamiyati	98
Ismoilova Yu.T. Pedagogik muloqot jarayonidagi konfliktlar va ularni bartaraf etish yo‘llari	107
Sattorova M.A. Maktab ta’limida bo‘lajak defektolog mutaxassislarni inklyuziv tayyorgarligini rivojlantrish muammosi	114
Jumamurodova U.M., Aliqulov L.Sh. Pedagogika fanida qo‘llaniladigan interaktiv metodikalar	120
Xolboyev A.M. “Hamkorlik zanjiri” asosida talaba-yoshlarda vatanparvarlik tuyg’usini shakllantirishning o‘ziga xos pedagogik jihatlari	124
Ahadov A.M. Modernizatsiya jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarda axborot xavfsizligini ta’minalash ko‘nikmalarini takomillashtirish omillari	131
Eshmurowdova G.X. Mehribonlik uylarida pedagogik muammolarining tadqiq etilishi	137
Murodova F.G’. Og’zaki nutq malakasini baholash mazmuni, shakl vositalari va mezonlari. audio vizual dars tashkil etish	150
Suyunov I.E. Axborot kompetentligini rivojlantrish orqali bo‘lajak o‘qituvchilarining kasbiy nutqini takomillashtirish pedagogik muammo sifatida	154
Aляминов X.I. Таалабаларининг инновацион тадбиркорлик фаолиятини ривожлантириш омиллари	159
Mirzaboyev Yu .A. Kompetensiya va kompitentlikning pedagogik –psixologix xususiyatlari	164
Saxibov A.X. Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fanini zamонавиy axborot texnologiyalari yordamida o‘qitish	171



O'ZBEK TILINING IZOHLI LUG'ATIDA YASAMA SO'ZLARDAN FOYDALANISH HOLATI

Haydarova G.M.

*ChDPU, "Boshlangich ta'lif nazariyasi va
amaliyoti" kafedrasi o'qituvchisi*

Tayanch so'zlar: o'zbek tili, yasama so'zlar, lug'at, taraqqiyot, integratsiya.

Ключевые слова: узбекский язык, искусственные слова, лексика, прогресс, интеграция.

Key words: uzbek language, artificial words, vocabulary, progress, integration.

РЕЗЮМЕ: Ushbu maqolada o'zbek tili taraqqiyotida yasama so'zlarning ahamiyati tahlil qilingan bo'lib, yasama so'zlarning miqdori va ularning lug'atdagi boshqa so'zlarga nisbati hamda lug'atdagi so'zlarni tartibga solish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

РЕЗЮМЕ: В данной статье анализируется значение искусственных слов в развитии узбекского языка,рабатываются предложения и рекомендации по количеству искусственных слов и их соотношению с другими словами в словаре, а также по расположению слов в словаре.

SUMMARY: This article analyzes the meaning of artificial words in the development of the Uzbek language, develops suggestions and recommendations on the number of artificial words and their relationship to other words in the dictionary, as well as on the location of words in the dictionary.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili natijasida o'zbek tilshunosligida so'z ma'nosining o'zgarishi, ma'noning ko'chishi, polisemantik so'zlarning ba'zi ma'nolari orasidagi bog'lanish uzilib, ayrimlarining maxsuslanishi orqali yangi so'zning hosil bo'lishi semantik yoki leksik-semantik yo'l bilan yasash deb yuritiladi.

Ma'lumki, tilda so'zlarning ma'nolari har xil usullar bilan ko'chishi mumkin. Chunonchi, so'z semantikasidagi o'zgarish, asosan, metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik kabi semantik transformatsiya asosida ro'y beradi. Tilshunoslarning yakdillik bilan bildirgan fikrlariga qaraganda, semantik usul bilan termin hosil qilishda asosiy rolni metafor o'ynaydi. Chunki umumadabiy yoki jonli tildagi so'zlarning biror xususiyatini, masalan, shaklan o'xshashligini, rang-tusidagi bir xillikni asos qilib olish yo'li bilan yangi-yangi terminlar vujudga keladi.



O‘zbek tili terminlarining semantik yoxud semantik-sintaktik usul bilan yasalishi sof o‘zbekcha yoki o‘zbek tilida avvaldan ishlatalilib kelingan arabcha va fors-tojikcha so‘zлarni yangi, ma’noda qo‘llashdan iboratdir.

XIX-XX asrda jamiyat hayotida boshlangan tarixiy o‘zgarishlar tilimizda ham o‘z aksini bera boshladi. Bu davr so‘zlarning o‘zlashish va so‘zlarning chiqib ketish jarayoning tezlashgan davri bo‘ldi. XX asrda maktablar tashkil etilishi, ommaviy savod chiqarish kabi omillari asosida bu holat yanada tezlashdi. Bu davrning muhim xususiyati shundaki, tilimizga nafaqat ruscha so‘zlar, balki rus tili orqali ko‘plab ingilizcha, fransuzcha, italyancha va boshqa tillardan so‘zlar kirib keldi.

O‘zlashma so‘zlar dastlabki davrda neologizm xarakterida bo‘lsa-da keyinchalik, asta-sekin qabul qiluvchi til qonuniyatlariga bo‘ysunishi, xuddi o‘z so‘zdek tabiiy va aniq bo‘lishi (*barg*), fonetik qayta shakllanishi (*karavot*), grammatik singishi (*bankdan*) so‘z yasash tizimida faol ishtirok etishi (*traktorchi*), takror-takror qo‘llanilishi tufayli yot elementligi bilinmay qoladi.

AVARIYA (ital. avaria mashina samolyot va sh.k.ishlab turgan vaqtida to‘satdan buzulishi ishdan chiqish)+chi .

AVARIYACHI [asosan ko ‘plik shaklida avariyyachilar. Avariyaning oldini olish yoki oqibatlarini tugatish uchun tuzilgan brigada]

AVIYAMODELCHI. avia [lot. avis – qush.] o‘zlashma qo‘shma so ‘zlar tarkibida “aviasiya”so‘zi o‘rnida shu so‘zga aloqador ma’nolarda qo‘llaniladi

AVTOVOKZAL. avto (yun. autos –o‘zi-o‘zimo ‘zlashma so‘zlar tarkibida quyidagi ma’nolarni bildiradi.)+**vokzal**, (Shaharlарaro avtobuslar qatnovi yo‘llarning oxirgi oraliqnuqtalarida yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatadigan inshootlar majmui).

AVTOGRAF (yun.grafho-yozaman.1. Asarning muallif qo‘li bilan yozilgan nusxasi, asl qo‘lyozma. 2. O‘z qo‘li bilan yozilgan yozuv va imzo; dastxat.

AGROBIOLOGIYA agro(yun. agros-dala; qishloq)+*bio*+(yun. hayot)*logiya* (yun. so‘z ta’limot) (o‘simlik va hayvonlar hayotining biologic qonuniyatlarini o‘rganadigan fan).

ALLEGROLOGIYA *allergiya*(yun. allos-boshqa+ ergon -ta’sir).(yun. so‘z ta’limot).

BIOTELEMETRIY *Abio+tele* (yun. uzoqda)+*metreo* (yun.o‘lchayman) (biologic hodisalarini o‘rganish va biologik ko‘rsatkichlarni(harorat, qon bosimi, yurak urishi, nafas olish va h.k) uzoqdan turib o‘lchash)

BIOTIP *bio+tip*(yun. typos-qiyofa nusxa(tashqi ko‘rinishidan bir biriga o‘xshasa ham ayrim yashash xususiyatlari bilan farq qiladiganbiologik turlar).



BIOFILTR *bio+filtr* (fr. filtre<lot. filtrum-kigiz namat. 1. suyuqlik yoki gazlarni keraksiz aralashmalardan tozalash uchun xizmat qiladigan moslama),(oqova suvlarni biologik yo'l bilan tozalaydigan inshoot),

DAKTILOGRAFIYA *daktilo* (yun. barmoq)+*grafiya* (yun. grapho-yozaman) (Yozish uchun qulay bo'lgan har qanday tekis yuzada barmoqlar bilan amalgamoshirilgan yozuv (kar soqovlar o'rtaida),

JURNALXON *jurnal* (fr.journal-gazeta; kundalik daftар)+*xon*(s.y.q) (*jurnal o'quvchi*),

ZAPRAVKACHI *zapravka* (r.zapravit-“to’ldirmoq” fe’ldan yasalgan ot)+*chi*(s.y.q) (*Mashina traktor, va shu k ga yonilg'i quyuvchi shaxs, zapravka ishchisi*),

ZOOLOGIYA *zoo* (yun.-hayvon,jonivor)+*logiya*(yun.-so‘z, tushuncha; ta’limot) (biologiyaning hayvonot olamini o‘rganadigan sohasi).

ZOOTEXNIKA, *zoo+texnika* (zoo+yun. techne-mahorat) zootexnika (chorvachilikni rivojlantirish, chorva mollarini asrash, parvarish qilish masalalari bilan shug‘ullanadigan fan sohasi).

IMMUNOLOGIYA *immuno* (lot. Immunitas –qutilish, xalos, xoli bo‘lish) +*logiya*(yun. logos-so‘z ta’limot) (organizmning himoyaviy xususiyatlari, uning imuniteti haqidagi fan),

INTERLINGVISTIKA *integral* (lot.integer bir butun buzilmagan), *inter* (lot. orada, o‘rtada)+*lingvistika*(fr.lingquiste<lot.lingua –til)

(tilshunoslikning xalqaro muomalarga mo‘ljallangan sun’iy tillar(volapyuk, eksperantova b.)matematik va information tillar qurilishini o‘rganuvchi sohasi).

INTERNATIONAL *inter+national* (lot.natio, nations-xalq) (fr. internationale lot ba’zi birikma nomlari tarkibida “xalqaro birlashma”ma’nosini bildiradi.).

INTERFAOL. *inter+faol* (informatsiyani axborotlarni kompyuter tarmog‘i orqali qabul qilish yoki uzatishga asoslangan).

KABELCHILIK *kabel* (goll. Kabel-langar arqoni. Yer ostidan elektr, telefon,radio tarmoqlarini o‘tkazishuchun ishlatiladigan usti germetik himoyalangan similar o‘rami)+*chilik* (s.y.q) (kabelchi ishi, kasbi).

KAVALYER (fr:cavalier<ital.cavaliere-biror ayol bilan birga bo‘lib, suhbatlashib yuruvchi, kuzatib boruvchi yoki birga o‘yinga, raqsga tushuvchi erkak).

KAMPANIYA (fr. capagne-(harbiy) safar<ital. campagna-jang maydoni) +*chi-lik*, *kampaniyachilik* (kampaniyabozlik), *lino* (lot.line-yo‘l, chiziq)+*tip*(yun. typos-belgi) +*chi*(s.y.q)



LINOTIPCHI (linotipda harf teruvchi), *lint* (ingl. *lint-paxta momig'i*) + *er*(ajratgich) + *chi* (s.y.q.) *linterchi* (*linter mashinada ishlovchi ishchi*).

MAGAZINCHI *magazine* (fr. *magazin*< a. *ombor*; *katta magazin*. *turli buyumlar sotiladigan chakana savdo dukoni va uning binosi*) + *chi* (s.y.q.)

MAGNITOGRAF *magnito* (yun. *magnetis lithos-* magnesiya (Magnesia) toshi Temir va po'lat buyumlarni o'ziga tortish yoki o'zidan itarish xususiyatiga ega bo'gan jism)+*graf* (yun. *grapho-yozaman*) *magnitograf* (yer magnit maydoni o'zgarishlarini muntazam qayd qilib boradiganasbob)

MAGNITOMETRYA *magnito+metriya* (yun. *metreo-* o'lchayman) (geofizikaning yer magnit maydoni va uning anomaliyalarinio 'rganuvchi bo'limi).

NARKOBIZNES *narko* (yun. *narkotikos* –dong qotiruvchi, gangituvchi, miyani aynituvchi, o'zlashma baynalmilal so'zlarining birinchi qismi bo 'lib, "narkotiklar", "narkozga oid"ma'nolarini ifodalaydi.) + *biznes* (ingl. Business-ish mashg'ulot)(uyushganjinoyatchi guruh va to'dalarning narkotiklar(giyhvand moddalar)ishlab chiqarish va tarqatish bilan bog'liq faoliyati).

NARKOMANIYA *narko+maniya* (yun. *jinnilik* qattiq berilganlik, qiziqish, intilish(narkotik moddalarga o'rganib qolib ularni iste'mol qilmasdan turolmaslik; giyhvandlik,bangilik).

NEVROLOGIYA *nevro* (yun. *neuron-* *tomir nerv*)+*logiya* (yun. *logos-fan ta'limot*) (tib. Normal va potologik holatdagi nerv sestemasining tuzulishi va faoliyatini o'rganuvchi fan).

OPPOZITSIYA (*lot.oppositio* - qarama -qarshi qo'yish)+*chi*(s.y.q.)

OPPOZITSIYACHI (*oppozitsiya qatnashchisi yoki tarafdori*),

ORFOGRAFIYA *orfo*, (orto-yun. *orthos-* to'g'ri)+*grafiya* (yun, grapho-yozaman) (so'zlarni to'g'ri yozish haqidagi qoidalar),

ORFOEPIYA *orfo+epiya*(yun. *epos-* nutq, talaffuz, so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish haqidagi qoidalar; to'g'ri talaffuz. *Tilshunoslikning shunday qoidalar tizimini ishlab chiqadigan bo'limi.*),

OSTEOLOGIYA *osteo* (yun. *osteon* suyak)+*logiya* (yun. *logos-fan ta'limot*) (normal anatomiya va antropologiyaning odam skeleti, qisman undagi ayrim suyaklarning tuzulishi, o'lcham va shakllaridagi o'zgarishlar hamda ularning rivojlanishini o'rganuvchi bo'lim).

OSTEOXONDROZ *osteo+xondros* (yun. *chondros-tog'ay.*) (tib. Umurtqalararo tog'ay, pay to'qimalarining turli xil o'zgarishlari natijasida kelib chiqadigan kasallik).

Leksemani tub deb atash- nisbiy tushunchadir. Hozirgi til nuqtai nazaridan tub deb qaraladigan leksemalarning ko'pchiligi asli hosila leksema bo'lib,



ular tarkib toptiruvchi ma'noli qismlarga faqat hozirgi til nuqtai nazardan ajratilmaydi. Masalan, *bosh-* leksemasi tarixan ham, hozirgi o'zbek tilida ham ma'noli qismlarga ajratilmaydi, shunga ko'ra aslan tub leksema deyiladi. *Boshqa-* leksemasi esa hozirgi o'zbek adabiy tili nuqtai nazardan tub deb qaraladi; aslida esa bu leksemani tarixan *bash-*-leksemasining "ajralib turuvchi" ma'nosidan -*i(q)* qo'shimchasi bilan yasalgan bashiq- fe'lidan -a qo'shimchasi bilan yasalgan sifat bo'lib, hozirgi o'zbek tilida ma'noli qismlarga ajratilmaydi: (*bash-+iq=bashiq*) + -a = *bashiqa* >*bashqa* >(Bu leksema tarkibini *bosh+qa* tarzida ifodalash noto'g'ri)

Asli qanaqa ekanligidan qat'iy nazar, hozirgi o'zbek tilida tub deb qaraladigan leksemalarning ifoda jihatni deb ular tarkibidagi tovushlar (fonemalar) ta'kidlanadi. Hosila leksemalarda esa ularning ifoda jihatni deb to'g'ridan to'g'ri tovushlarni aytish o'rinni emas. Masalan, *go'zal-* leksemasi asli hosila leksema bo'lib, hozirgi o'zbek tilida tub leksema deb qaraladi, shunga ko'ra uning ifoda jihatni deb to'g'ridan to'g'ri tarkibidagi sakkiz tovushni (fonemani) ko'rsatish o'rinni emas, chunki bu leksema *go'zal-* va -*lik* ma'noli qismlaridan tarkib topgan Demak, hozirgi o'zbek tilida yasama deb qaraladigan leksik birlik dastlab ma'noli qismlarga ajratiladi, ifoda jihatni deb avval shunday ma'noli qismlar ta'kidlanadi, keyingina har bir tub ma'noli qismning o'ziga nisbatan ifoda jihatni deb tovush (fonema) ko'rsatiladi.

Hosila leksemalar turlichcha yuzaga keladi: leksema yasaladi, leksema tuziladi, leksemaga aylanish voqe bo'ladi.

Mavjud leksemaga qo'shimcha qo'shish orqali hosil qilingan leksema *yasamaleksema* deb ataladi. Bunda leksema qo'shimchaga nisbatan leksema yasalish asosi, qo'shimcha esa leksema yasovchi, hosila-yasalma, yasama leksema deyiladi. Masalan, *hikoyachi* yasama leksemada *hikoya-* leksema yasalish asosi, -*chi* qo'shimchasi esa -leksema yasovchi.

Boshqa tildan olingan leksemalar tarkibida kirib kelib, o'zbek tili manbaidan ham leksema yasash vazifasini bajaradigan ayrim old qo'shimchalar – prefikslar bor. Masalan, hozirgi o'zbek tiliga tojik tilidan olingan leksemalar orasida *ba-*, *be-*, *no-*, *ser-*, old qo'shimchalar bilan yasalgan leksemalar talaygina (xususan, bunday old qo'shimcha bilan yasalgan so'zlar ruhiy holat ifoda etuvchi so'zlar orasida ham mavjud). Shuningdek, ushbu old qo'shimchalar o'zbek tilidagi so'zlarni yasash uchun ham asos bo'lib keladi. Ulardan, *be-*, *no-*, *ser-* kabi prefikslari bir qancha o'zbekcha leksemalarga qo'shiladi: *notanish*, *notinch*, *noto'g'ri*, *noo'rin*, *noqulay*; *bebosh*, *betinim*, *bechiqim*; *serajin*, *serildiz*, *serqatnov* va boshqlar.



Leksemani yasama leksema deyish uchun uning tarkibida yasalish asosi bo‘lib kelgan leksema ham, yasovchi affiks ham hozirgi o‘zbek tilida aniq ajralib turishi, yasalish asosi mustaqil leksema mavqeiga ega bo‘lishi, boshqa yasama leksemalarga ham asos sifatida xizmat qilishi, affiks ham shunday xususiyatlarga ega bo‘lishi lozim. Masalan, *ishchi-*, *ishchan*, *notanish*, *serildiz*, *bechiqim* kabi leksemalar tarkibida yasalish asosi bo‘lib kelgan leksemaga va yasovchi affiksga aniq ajralib turadi.

Ma’lumki, so‘z yasalishi tilshunoslikda so‘z hosil qilinishi va u bilan bog‘liq masalalarni o‘rganuvchi bo‘lim hamda turli usullar asosida yangi so‘z hosil qilish ma’nosida qo‘llanadi.

O‘zbek tiliga xos so‘z yasalishining nazariy va amaliy masalalari Ayub G‘ulomov, Azim Hojiyev kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan.

Tilda mavjud vosita va usullar hamda modellar asosida yangi so‘z hosil bo‘lishi so‘z yasalishi deb ataladi. Masalan, *gul+chi* – *gulchi*, *osh+paz* – *oshpaz*, *ko‘z+oynak* – *ko‘zoynak*, *bel+bog* ‘ – *belbog* ‘, *bordi-keldi*, *oldi-berdi*, *qo‘ydi-chiqdi* kabilar.

Barchamizga ma’lumki, tildagi so‘zlar yangi so‘z va tushunchalarning kirib kelishi hisobigagina emas, balki tilda avvaldan muomalada bo‘lib kelgan so‘z asosida yangi leksemalarni hosil qilish yo‘li bilan ko‘payib, boyib boradi. Bitta asos vositasida bir nechta leksema yasalishi mumkin.

Ma’lumki, tilning lug‘at boyligi doim o‘zgarib, rivojlanib boradi. Turli sohalar: ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalarda paydo bo‘lgan yangi tushunchalarni so‘z bilan ifodalash ehtiyoji sababli tilda yangi so‘zlar paydo bo‘ladi. Ushbu yangi so‘zlar esa ikki xil usul bilan vujudga keladi:

1. Har bir tilning ichki imkoniyatidan kelib chiqib.
2. Boshqa tillardan so‘z olish yo‘li asosida.

Har bir tilning ichki imkoniyati asosida yangi so‘zlarni hosil qilishda joriy tilda avval bo‘lgan so‘zga qo‘sishma qo‘sish yoki so‘z qo‘sish yo‘li katta ahamiyatga egadir. Tilda avval mayjud bo‘lgan so‘zga ma’lum yasovchi vositalarni qo‘sish bilan yangi so‘z hosil bo‘lishiga so‘z yasalishi deyiladi. So‘z yasalishining bir necha usullari mavjud:

- 1) so‘z yasashga asos bo‘luvchi qismga qo‘sishma qo‘sish orqali so‘z yasash usuli ya’ni morfologik usul – affiksatsiya
 - 2) so‘zlarni qo‘sish orqali so‘z yasash ya’ni sintaktik usul – kompozitsiya
- Hozirgi o‘zbek adabiy tilida so‘z yasashning eng oson usuli affiksatsiya usulidir.



Tilimizda so‘zlar tuzilishiga ko‘ra *sodda*, *qo‘shma, juft*, *takroriy* so‘zlarga bo‘linadi. Sodda so‘zlar – faqat bir asosdan tashkil topgan so‘zlар bo‘lib, ular o‘z navbatida **tub** va **yasama** so‘zlarga bo‘linadi.

Tub so‘zlar – tarkibi asos va so‘z yasovchi qo‘shimchalar kabi qismlarga bo‘linmaydigan so‘zlardir.

Yasama so‘zlar – tarkibi asos hamda so‘z yasovchi qo‘shimchalarga ajraladigan, hamda ikki so‘zning qo‘shiluvidan yangi ma’no hosil bo‘lishi natijasida yasaladigan so‘zlardir. Bu so‘zlar yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, asosga qo‘shimcha qo‘shish ya’ni affiksatsiya va so‘z qo‘shish usullari orqali hosil qilinadi.

ADABIYOTLAR:

1. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 2 жилдли. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1981. – Б. 632.
2. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 2 жилдли. 2-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1981. – Б. 715.
3. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 5жилдли. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б. 680.
4. Тожиева Г. Ўзбек тилининг кисқача маънавият лингвокультурологик қомусий лугати. – Тошкент: Академнашр, 2017. – 27-б.
5. Абдурахмонов Ў., Мамажонов С. Ўзбек тили ва адабиёти.-Т.: Ўзбекистон, 2002.-Б. 84-85.
6. Маслова, В. А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб, заведений. [Текст]/ В. А. Маслова.– М.: Издательский центр «Академия», 2001. — 208с.
7. Ashurboyev S. O‘zbek dialektologiyasi – Toshkent: “Navro‘z nashriyoti”, 2016.-B.139.
8. <https://www.google.com/search?q=Milliy+reestr&oq=Milliy+reestr&aqs=chrome..69i57.1785j0j4&sourceid=chrome>
9. <https://www.google.com/search?q=Internet+plyus%2C&oq=Internet+plyus%2C&aqs=chrome..69i57.24167j0j9&sourceid=chrome&ie=UTF-8>